

“Muhammad Yusuf –Vatan va muhabbat kuychisi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



“Muhammad Yusuf xalqimiz sevgan samimiy shoir, vatanparvar inson edi. Sizlar uning munosib davomchilari bo‘lishingiz kerak”.

Shavkat Mirziyoyev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti bayramona bezatildi. Erta tongdan O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 67 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan “Muhammad Yusuf –Vatan va muhabbat kuychisi”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilari institutga kirish joyida karnay-surnay, doira sadolari ostida kutib olindi. Ushbu tadbir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yilning 20-may kuni Toshkent shahrida tashkil etilgan Adiblar xiyoboniga tashrifi davomida bildirgan fikrlari va o'tkazilgan majlisning 35-sonli bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etildi.



Xalqaro konferensiya doirasida dastlab "O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf nomidagi Darsxona"ning ochilish marosimi bo'ldi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori Ibrohim Yo'ldoshev tadbir qatnashchilarini bu yerda yaratilgan sharoitlar bilan tanishtirdi.



Ushbu xona zamonaviy jihozlar bilan ta'minlandi. Muhammad Yusuf hayoti va ijodini o'zida mujassam etgan ko'rgazmali qurollar, eng so'nggi rusumdagi elektron doska bilan jihozlandi. Shoir hayotini o'zida mujassam etgan albom, fotosuratlar bilan bezatildi. Bu yerdan shuningdek, Muhammad Yusuf ijodiga mansub kitoblar o'rin olgan. Endilikda shoir hayoti va ijodi bilan bog'liq tadbirlar, o'quv va amaliy mashg'ulotlar ushbu darsxonada o'tkaziladi.



Shundan keyin xalqaro konferensiya o'z ishini boshladi. Anjumanni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev kirish so'zi bilan ochdi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori Ibrohim Yo'ldoshev tabrik uchun so'zni Turksoy Bosh kotibi Dusen Kasaenovga berdi (Turkiya).

Xalqaro anjumanda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev "Adiblar xiyoboni – adabiyot, ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat maskani" mavzusida ma'ruza qildi.



ZOOM dasturi orqali dunyoning qator davlatlari vakillari ishtirok etgan anjumanda Turkiya Arzurum universiteti dotsenti, fan doktori Rejai Kizlitunch (Turkiya) tomonidan “MUHAMMET YUSUF -SEÇMELER ESERININ TANITIMI” mavzusidagi ma’ruza konferensiya ishtirokchilari e’tiboriga havola etildi.

O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning umr yo‘ldoshi, O‘zbekiston xalq shoiri Nazira as-Salom “Muhammad Yusuf asarlarida tabiat mavzusi” borasidagi ma’ruzasi, shoir hayoti va ijodiga oid yangi ma’lumotlari bilan anjumanga yanada jo‘shqinlik bag‘ishladi.

O‘zbekiston xalq shoiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori Iqbol Mirzoning “Vatan–yuragimning olampanohi” mavzusidagi chiqishi xalqaro konferensiyani mazmunan boyitdi.

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri maslahatchisi, f.f.d., professor Ma’rufjon Yo‘ldoshev “Muhammad Yusuf she’riyatining tili” mavzusidagi ma’ruzasi bilan ishtirok etdi.

Shuningdek, so‘zga chiqqanlar tomonidan “Ulkan shoir,

ulug'vor do'st singari qator mavzularda ma'ruzalar tinglandi. Konferensiya ishtirokchilariga "O'zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari" nomli 4 tomlik kitob sovg'a qilindi.



Xalqaro konferensiya doirasida Muhammad Yusuf nomi bilan ataluvchi ko'shkda talabalar tomonidan shoir she'rlari asosida yaratilgan qo'shiqlar ijro qilindi. Ko'ngillari she'riyatga oshufta o'g'il-qizlarlar tomonidan mushoiralar bo'lib o'tdi, she'rlar aytildi.



Kunning ikkinchi yarmida xalqaro konferensiya sho'balarga bo'lingani holda o'z ishini davom ettirdi. Unda Madaniyat vaziri maslahatchisi, filologiya fanlari doktori, professor D.Jumayevaning "Muhammad Yusuf she'riyati–tilshunoslik va adabiyotshunoslik", Turkiyalik tarjimon Hamza ÖZTÜRKCÜ ning "TÜRKIYEDE ÖZBEK EDEBIYATI ÇEVIRI ÇALIŞMALARI" mavzularidagi ma'ruzalari tinglandi.

Shuningdek, anjumanda "Muhammad Yusufning dardli dostonlari". "O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning obraz yaratish mahorati", Muhammad Yusuf ijodida Turkiston mavzusi" singari qator mavzularda chiqishlar qilindi. So'zga chiqqanlar tomonidan Muhammad Yusuf she'riyatida so'zning kuchi, shoir ijodining madaniyatshunoslik va san'atshunoslikda tutgan o'rni, o'zbek qo'shiqchilik san'atidagi ahamiyati singari jihatlarga e'tibor qaratildi. Milliy ruh, Vatan tuyg'usi singari g'oyalarni ilgari surgan shoir ijodi yana bir bora ulug'landi.

Xalqimiz uchun ulkan ma'naviy boylik qoldirgan Muhammad Yusufning asarlari orqali kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, shoir she'riyatida ajdodlarga ehtirom

tuyg'ularining o'ziga xos jihatlari e'tibor qaratildi.



Respublikamizning taniqli olimlari, ekspertlar, xorijiy mamlakatlar adabiyotshunoslari, O'zDSMI talabalari ishtirok etgan xalqaro konferensiyada umr bo'yi vatanni ulug'lagan, o'zi tug'ilib o'sgan shu muqaddas zaminni kuylab o'tgan shoir she'riyati, uning "Qora quyosh" singari dostonlarida ilgari surilgan g'oyalarning yoshlar tarbiyasidagi o'rni, kelgusi avlodni vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashdagi ahamiyatiga e'tibor qaratildi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 67 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar davom etmoqda.

Matbuot kotibi